



BOLALAR QO'SHIQLARIDA KICHIK HAJMLI IKKI, UCH BOSQICHLI TOVUSHQATOR - DIXORDLI VA TRIXORDLI LADLAR

Muallif: Oripova Sanobarxon Luftullayevna ¹, Mahmudova Muqaddas Maratovna²

Affilyatsiya: Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi “Musika nazariyasi” bo'limi bosh o'qituvchilari ^{1,2}

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14381655>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalar qo'shiqlarining ikki, uch bosqichli tovushqator- dixordli va trixordliga mansub kichik hajmli ladlar to'g'risida bayon etadi. Shu bilan birga, kichik hajmli lادلarning bir qatorli tuzilmalari bolalar qo'shiqlari janri kesimida ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Kichik hajmli lad, dixord, trixord, subkvartali dixord.

Barchamizga ma'lumki, musiqiy bilimlarni egallashda eng muhim muammolardan biri – laddir. Musiqiy lad har xil asoslar bilan bog'lanib, zamonaviy fanning musika madaniyatiga faol qiziqishi dolzarb bo'lgan, qaysiki, u bir tomondan asarning qimmatbaho mahsulidek va ikkinchi tomondan professional og'zaki an'anaviy musiqasini, bastakorlik va kompozitorlik ijodini ta'minlovchi tabiiy asos sifatida o'rganiladi.

Musiqiy folklor, bastakor va kompozitorning turli xil to'plamlaridagi lad tuzulishi doirasini o'rganish, musiqada me'yor va me'yor emasligi, shu bilan birga lad tuzilmalarining harakat qilish turlari, hamda o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurimizni jiddiy ravishda kengaytiradi.

Lad turli xil balandlikda bo'lgan tovushlarning asosiy tonikaga intilishi va o'zaro bog'langan tovushlar tuzilmasidir. Kichik hajmli ladlar tushunchasi, ko'pgina boshqa ladlar ko'rinishi singari, masalan, turg'unlik, noturg'unlik, tonallik, va nihoyat lad o'zi ham, hozirgi davrda bir xil ma'noli ta'rifga ega emas. Musika nazariyasida kichik hajmli lad tushunchasi, ikkita asosiy tuzilmalar bilan bog'liqdir. Birinchisi-oktavadan kichik bo'lgan diapazon, ikkinchisi- birinchidan kelib chiqqan holda, oddiy birlamchi qatorning lad tuzulishiga tayanadi.

O'zbek musika ladlarini o'rganishda ko'plab bayon qilingan nuqtai nazarlarga e'tibor qaratish, bir necha sabablar bilan o'zaro bog'langan. Bu muammoga qaratilgan maxsus qo'llanma yo'q. Musiqashunos Yu.G.Kon va S.P.Galitskayaning ayrim qo'llanmalarida u ko'p yoki oz darajada, faqat bir qatorli tuzilmalardagi lad tuzilishi munosabati bilan to'xtalib o'tilgan (Kon Yu.G. Rivojlangan xalq qo'shiqlarida ladning ichki tuzilishiga, hamda S.Galitskaya esa, lad o'zgaruvchanligiga bag'ishlagan) [4. – B.9].

Kichik hajmli lادلarning o'zbek musiqashunosligida deyarli kam o'rganilganligi, O'zbekistonda monodiya ladlarining nazariyasi, avvalam bor, birinchi navbatda umumiy

til qonunlarini o'rganish bilan bog'langan edi. Kichik hajmli ladlarga e'tibor qaratilishining yana bir sababi-o'zbek xalq musiqiy ijodiyotidagi, bastakor va kompozitorlarning bolalar uchun yaratilgan asarlari ekanligidadir. Bu musiqiy asarlar kichik hajmli lادلarni o'rganish uchun asosiy ma'lumotlar beradi.

Kichik hajmli lادلarni o'rganishdagi uslublarni aniqlashda, Yu.G.Konning "Некоторые вопросы ладового строения узбекской народной песни и её гармонизации.", S.Xisamovaning "Qoraqalpaq monodiyasining lad tuzulishi" qo'llanmalari asos bo'ldi, ma'lumki, turli nuqtaiy nazardan turib lad hodisalarini o'rganish mumkin, lekin ulardan asosiylari: tovushqatorli, funktsionalli, intonatsionallidir. Bu nuqtai nazarlarni tahliliy ketma-ketligi, bir vaqtda, tobora murakkablashgan hodisalar anglashining navbatlar ketma-ketligini ifodalaydi, shubhasiz, kichik hajmli lادلarni o'rganish bu yo'lning eng boshidan kelib chiqishini ko'zda tutilgan.

Yuqoridagi muammolar, bu masaladagi e'tiborni to'plashi, tovushqator va funktsional tovushlarning munosabati bilan bog'liq bo'lgan muammolarga sabab bo'ladi. Shu bilan birga lad tuzilishi shakllarida, qaysiki, ilk turlariga kiritish mumkin bo'lgan bu uchala lad nuqtai nazarlarini bo'laklarga bo'lish qiyinligi va ko'pincha ular ajralmas bahs- munozarada tashkil bo'lishini belgilash kerak. Ko'pgina o'rganilgan janrlar munosabatiga, to'liq ravishda E.Alekseyevning quyidagi so'zlari to'g'ri keladi: "Ilk qo'shiqchilik ohanglarida bahs-munozara, tabiiy bog'langan yopiq doira yuzaga keladi, qaysiki, bu doirada tahlilga asoslangan tenglikni juda jiddiy chegara bilan belgilash mumkin emas va to'g'ri ham kelmaydi" [2. – B.26].

Eng boshlang'ich davrning musiqiy nutqi tashkil topishdagi lad tuzilishi, qaysi yo'l bilan borganligini aytish qiyin. Musiqiy ijrochiligining nutq uslublari juda xilma-xil bo'lgan, ammo bir qancha tadqiqotchilar eng oddiy, ikki tovushli tuzilma - dixord lad tuzilishining dastlabki shakllaridan deb hisoblanadi (Musiqiy ijro qilishning ilk turlari turli-tuman bo'lishini E.A. Алексеев melodik kuylashning dastlabki formalarini, ya'ni uch xil melodik tuzilmalar: registrlil, kontrast, noturg'un-glissandalik va balandlik nisbatidan ancha-muncha mustahkam turlariga ajratgan. Ularni shartli ravishda $\alpha\beta$, va γ melodikasi deb atagan)[2. – B.53]. Musiqashunos olim B.Elatov esa quyidagi fikrni aytgan: "Qadimgi belarus ohanglarining lad tuzilishini tahlil qilishga kirishdan avval, diqqatni eng oddiy ikki tovushli musiqiy tuzilmaga qaratmoq kerak. U balki, xronologik bo'yicha eng qadimgi emas, ammo musiqiy kuylashning qadimiy turlari, shak-shubhasiz, ancha xilma-xil bo'lgan, lekin, ikki tovushli tuzilmaning lad tuzilish turi dastlabkilardan biridir" [5. – B.19]

Ikki tovushli tuzilmaga asoslangan qo'shiqlarda, faqat tashqi ko'rinishi bir asosli oddiy tovushqatornigina emas, balki har qanday musiqiy ijro etishning boshlanishi – intervalni kuzatish mumkin. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bizning davrimizgacha yetib kelgan musiqiy misollar, ladning ichki dinamikasini, yoki boshqacha qilib aytganda "melodik tuzilish"ning dastlabki shaklini o'zida saqlab qolmagan. Musiqiy rivojlanishning keyingi davriga xos bo'lgan shakl tuzilishdagi aniqlik va boshqa bir qancha belgilar bu fikrni quvvatlaydi. Biz bilgan ikki tovushli lادلardagi ohanglar o'tmishdagi musiqiy mahoratning ham soddaligini, ham mo'jizakor ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, bu ohanglarning ko'pchiligi bolalar ijro etadigan o'zbek xalq musiqiya ijodiyotidagi qo'shiqlardir.

Ma'lumki, ikkita yonma-yon turgan tovush balandligida ijro etish uslubi juda keng tarqalgan bo'lib, eng oddiy ohang nutq uslubi hisoblanadi. Ikkita yonma-yon tovushli bolalar qo'shiqlaridan "Oftob chiqdi" da uchratish mumkin:

O'XMM, III

Of - tob chiq - di o - lam - ga, yu - gu - rib bor - dim xo - lam - ga.

5 Da - dam chak - kam - ga ur - di O - nang - ga bor - gin de - di.

Lad qonuniyatlarini zamonaviy tassavur etish natijasida, bu qo'shiqdagi pastki tovushni, ya'ni oddiy ladning tonikasini o'rnashgan turg'un tovushday, yuqoridagi tovushni esa, umumiy ko'rinishda o'rnashmagan noturg'un manba sifatida ifodalash mumkin. Ladni bunday izohlab, asosiy kuch (aktsent) va umumiy tugallanish pastki tovushga to'g'ri kelishini aytib o'tish o'rinli.

O'zbek xalq musiqa ijodiyotidagi bolalar qo'shiqlarida ikkita yonma-yon tovushli yoki sekundali (Alekseyev E.Ye. atamasi bo'yicha) lادلardan tashqari, ba'zan ikki tovushdan iborat sekundali tuzilmaga, sof kvarta birikkan tuzilma tuzilishi ham bor (yoki subkvartali dixord- Yelatov V.I. atamasi bo'yicha) . Masalan, "Oq terakmi, ko'k terak" :

Oq te - rak - mi ko'k te - rak, Biz - dan siz - ga kim ke - rak?

Ki - chik Sa - lim - jon ke - rak. Ki - chik Sa - lim - jon ke - rak.

Bu qo'shiqdagi ladda, kvartaning akustik hislati, sekundali tuzilishdagi pastki tovushning tonikali ahamiyatini aniq ko'rsatadi. Umuman aytganda, kvarta hozirgi vaqtgacha, ko'pgina musiqiy tuzilmalarni asosida joylashgan intonatsion turg'un intervallardandir. Tabiiyki, uni ongli intonatsion sifatida paydo bo'lishi, lad va umuman musiqiy tafakkurning rivojlanishida muhim qadam bo'lgan [2. – B.183-184] Bunga ikkita yo'l, ya'ni tovushqatorning asta kengayishi bilan bu interval "egallanishi" va uni yagona intonatsion qadami bilan "kengayishi" orqali borgan[3. – B.109]

O'zbek xalq musiqa ijodiyotidagi bolalar qo'shiqlarida ikki yo'l ham mavjud bo'lib, subkvartaning paydo bo'lishi esa ikkinchi yo'lning natijasidir. Bu keyinchalik lادلarni vujudga kelishida muhim o'rin egallagan. Musiqashunos olim Yu.G.Kon "O'zbek xalq qo'shiqlarining ba'zi lad tuzilishi masalalari" kitobida ham, kvarta haqida quyidagi fikrni izohlagan: "O'zbek musiqasida kvartaning lad tuzilishidagi ahamiyati, melodik aylanmalari va ayrimlarida, ko'pincha uchraydigan tovushqatorlarning to'ldirilgan pastki tetraxordida, qaysiki asosiy turg'un va uning pastki sof kvarta orasida kvarta negizi paydo bo'lishini tashkil qiladi" [9. – B.29].

O'zbek xalq musiqiy me'rosidagi bolalar folklorida ikkita yonma-yon sekundali dixorddan tashqari, dixordli kvarta yoki "kvartali sekunda" (E.Ye.Alekseyev atamasi bo'yicha) tovushqatori ham mavjud va u o'z navbatidan to'liq tovushqatorni ifodalaydi.

Masalan, bolalar folklorida vujudga kelgan kvarta oralig'i, yuqorida aytib o'tilgan akustik shart-sharoitlar tufayli, boshqa intervallardan ko'ra ertaroq, aniq intonatsion – ma'noli xarakterga ega bo'ladi:

1. Zuv-zuv borag'ay

Zuv - zuv bo - ra - g'ay, tom - dan qa - ra - g'ay
sul - ton o' - qi-g'ay zam - bil to' - qi-g'ay

2. Osh xo'arakam

Osh xo' - ra - kam kam - tar non ko' - ra - kam kam - tar
ho - vuz - da to'n - ka

Bu qo'shiqlarning umumiy ko'rinishini olganda, bir xil tovushqatoriga o'xshaydi, ammo ularning farqi juda kattadir. Agar keltirilgan birinchi qo'shiqda "mi" tovushi tonikaga nisbatan pastki yordamchi tovush bo'lib, tonika xususiyatini bo'rttirib ko'rsatsa, ikkinchi qo'shiqda, esa aksincha ikki tovushning orasida turg'un bo'lib, ajralib turadi. Tovushqatorlardagi "si" notasi tayanch, yoki nisbatan tayanch "lya" ning aylanma ohanglantiruvchi tovush vazifasini bajaradi.

Turg'un va noturg'unlik bir-birini o'rnini bosadigan bo'lmasa ham, har holda aniq qarama-qarshiligi sezilmaydi. Bu borada M.Xarlarning quyidagi nuqtai nazarini keltirish mumkin: "Intonatsion nutq usulini ikkita jumla urg'usining ritmik funksiyalari bo'ladi va bu paytda birontasi ham tonika deb hisoblanmaydi. Xalq ladi ritmika singari subordinatsiya bilan emas, balki koordinatsiya bilan xarakterlidir... bitta asosiy turg'unlik o'rniga teng huquqli, lekin funksiya jihatidan qarama-qarshi turg'unliklarni uchramiz" [1. – B.30] Hozirgi davrda "jiddiy" xalq musiqqa merosida sekundali, ya'ni dixordli laddagi tuzilmalar juda kam, ammo u ba'zan qo'shiqlarda o'ziga xos tuzilma ohanglari sifatida uchraydi. Dixord ladining kadensiyali aylanmalaridan (tugallanish qismidagi), ya'ni

yuqoridan pastki yetakchi ton va yuqoridan yoki pastdan kvarta sakrama tovushi orqali asosiy turlari uchraydi.

Dixord ladidan keyin uch tovushdan iborat-trixordli lادلarning o'zbek musiqasida ahamiyati katta. Turg'un ladlar orasida, turg'un tovushdan yuqoriga qarab tuzilgan tertsiyali lad, muhim rol o'ynaydi. Trixordli tuzilmadagi mustaqil lad sifatida ko'rinishi oz, ko'proq rivojlangan, yoki murakkab ladning, ya'ni melodik tuzilmaning boshlanishi uchun xarakterli bo'lib, tertsiyali koordinatsiyasiga asoslangan kuy va qo'shiqlarda mavjuddir. Tahlil davomida uch tovushdan iborat trixord lad tuzilmalariga asoslangan kompozitor I.Hamroyevning "Kulcha non" qo'shig'ida kuzatish mumkin:

O-yim yop-di - lar kul-cha moy kul-cha, moy kul-cha Ye de-di-lar to'y-gun-cha, to'y-gun-cha,
to'y-gun-cha. Kul-cha o'x-shargul-cha-ga oh, oh, oh. Yu-zing o'x-shar kul-cha-ga oh.

Trixordli ladlar asosan maylli belgisi bo'yicha minor ladlarida uchraydi, ba'zi hollarda esa major trixordli ladida ham ifodalanadi. Trixordli ladning asosiy xususiyatlaridan biri, kuy va qo'shiqlarda, faqat ustun keladigan bo'lib qolmay, u o'z-o'zidan murakkab ladli tuzilmalarning tuzilishi uchun amaliy baza bo'la oladi. Ba'zan, qo'shiqlarda diapozoni kvarta yoki kvintani tashkil etsa ham, asosiy vazifani tertsiya koordinatsiyasi, asosan melodik tuzilmaning boshlanishi uchun xarakterlidir.

Trixordli lادلarning yana bir muhim tomoni shundaki, u tertsiya uyushmasining pastki tovushiga birikkan, to'ldirilmagan holda kvarta bilan hamohangdir. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, subkvartali lادلarning bo'sh subkvartasi diatonik tonlar bilan to'ldirilib, asta-sekin kengayishi murakkab tuzilmali (qatorli tuzilma) ladiga olib keladi. Subkvartali lادلarning murakkablashgan ko'rinishida paydo bo'lgan ladlar, bir-biridan ham mustaqil, ham bevosita bog'liq ravishda mavjud. Subkvartali trixord ladiga misol sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Quv-noq er-tak she' rin-giz, quv-noq biz-ga meh-rin-giz. Rah-mat o-pa-jon! Rah-mat bog' cha jon!

Kompozitor G.Qodirovning "Rahmat opajon, rahmat bog'chajon" bolalar qo'shigi moyilli belgisi bo'yicha major ladini aks etadi (fa-lya). Trixordning pastki, ya'ni "fa" (qisman to'ldirilgan pastki noturg'un "mi") tovushiga birikkan "do" tovushi (subkvarta), ladning turg'un tovushini, tonikali ahamiyatini yana ham bo'rttirib ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, dixordlarda bosqichlar umuman teng huquqli bo'lsada, ammo uch tayanchli tuzilma haqida bunday deyish mumkin emas. O'zbek musiqasida trixordli lادلarning turg'un toni (tonikasi) ko'proq ikki holatda, ya'ni trixordning pastki tovushi va trixordning o'rta tovushi turg'unligi uchraydi.

Lad muammolari ustida shug'ullanuvchi folklorshunoslar fikricha tovushqatorning yuqori bosqichidagi tovushi tonika bo'la olmaydi. Biroq, o'zbek musiqa ijodining yuqori bosqichdagi tovush tonika holatida, trixordning kadensiyali aylanmalari orasida yuqoridan pastki yetaklovchi ton va pastdan yuqoriga yetaklovchi ton xususiyatlari mavjud.

O'zbek musiqasidagi bolalar qo'shiqlarida kichik hajmli ladlarini o'rganish, ularni diatonik, gemitoniklik va pastki ustun holatining ustunlik tamoyili to'g'risidagi xulosaga olib keladi. Bu qirralar, barcha o'zbek musiqasida, lad tuzilmalarini umumiy ta'riflanishi bilan bir xil bo'ladi. Lekin, o'zbek musiqasidagi oddiy va rivojlangan qo'shiqlarda lad tuzilishining eng muhim qonunlarining umumiylikni tasdiqlash bilan birga, ba'zi bir tasavvurlarda hali yoritilmagan lad hodisalarini tekshirishdagi tuzatishlarni kiritishga imkoniyat tug'diradi. Bular dixordli, trixordli tuzilishdagi tadqiqotlar bo'lib, ularning turini, tovushlarning o'zaro munosabati xususiyatini belgilashga imkon beradi. Bunday lad tuzulishlari ko'proq bolalar qo'shiqlari negizida bo'lib, shak-shubhasiz, diqqatni tortadi, chunki lad qonuniyligining shakllanishidagi manbaalar tuzilishiga yaqinlashishiga yo'l qo'yadi. Ularda pog'onama-pog'ona emas, balki aniq bo'lgan tovushlar munosabatining ko'p bo'lishi mana shuni ta'kidlaydi. Ba'zan tovush funksiyasi qancha tovush balandligi vaziyati emas, ritmik va bundan tashqari, ekstramusiqiy asoslar-matn, harakat bilan aniqlanadi.

Shu sababdan, dixord ohanglari uchun sekundali o'zgaruvchanlik, trixord aylanmalarida turg'un sifatida I, II va III bosqichlarning ajralib turishi mumkinligi xarakterlidir. Shunday bo'lishiga qaramay, pastki tovushning ustun sifatida ajralib chiqishiga yetarli darajada moyilligi aniq namoyon bo'lishini belgilash mumkin. Bu moyillik, boshqa turdagi ladlarda, dixord va trixord tuzilmalarining qator sifatida kelib chiqishi hollarida asosiy qonuniylik xususiyatini egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Алексеев Э. Проблемы формирования лада. М., 1976.

Галицкая С. П. Ладовая переменность в узбекском песенно фольклоре. Кандидатская диссертация, Т., 1970.

Караматов Ф - Основные черты музыкального строения узбекских народных песен//Вопросы музыкальной культуры Узбекистана. Т., изд.художественной литературы УзССР,1961.

Караматов Ф - Кириш. // Узбек халқ музыка мероси. I-II том,Т.